

## PEDAGOGLARNING AKT SAVODXONLIGINI OSHIRISH HAMDA RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Xolbo'tayeva Nargiza Marufbekovna

Mirzaobod tumani 3-maktabgach ta'lim tashkiloti tarbiyachisi

**Annotation:** Ushbu tezisda pedagoglarning AKT savodxonligini oshirish, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish usullari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

### INNOVATIVE APPROACHES IN INCREASE AND DEVELOPMENT OF ICT LITERACY OF EDUKATORS

Xolbutayeva Nargiza Marufbekovna

Mirzaabad district 3rd post-school educational organization educator

**Abstract:** This thesis provides information on ways to increase ICT literacy of pedagogues, use of innovative pedagogical technologies and information technologies in the educational process to increase educational efficiency.

Kirish: Barchamizga ayonki, hozirgi davr farzandlari buyumlarni ushslash darajasiga yetishishlari bilan televizor, komp'yuter va telefon apparatlariga intilishlari shakllanadi. Texnika rivojlanish asri – deb nom olgan hozirgi davrda yoshlarimizning qanday mafkuraga moyilligi, ularning ongida shakllanayotgan o'y-fikrlari va tasavvurlarini ilmiy asosda o'rGANISH hayotiy zaruratdir.

Asosiy qism: Yuqoridaq holatdan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarni tashkil etishda mul'timediya vositalaridan foydalanish davr talabiga aylanoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda ta'lim tarbiya jarayonlarini tashkil etishda ta'lim texnologiyalari, didaktik o'yinlardan, turli texnika vositalardan foydalanish davr talabiga aylanmoqda. Unda asosan bolalarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, ijodiy va aqliy qobiliyatlarni o'stirish, ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga e'tibor qaratiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkur darajalari ayniksa rivojlantirish va shakllantirishda mashg'ulotlarning sifatlari va keng qamrovli tashkil etilishiga, tafakkurni shakllantiruvchi usul va vositalarni to'g'ri tanlash hamda tarbiyachining kabiy kompetentligiga ham bog'liqdir.

AKTdan vaqtı-vaqtı bilan foydalanish, ya'ni pedagog tomonidan dozalangan ta'limiy o'yinlaridan foydalanish bolalarda irodaviy fazilatlarni, tafakkurlarini rivojlantirishga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim uzlusiz ta'limning birinchi turi

bo‘libgina qolmay, balki ijodkor, ijtimoiy faol, ma‘naviy jihatdan boy shaxsni shakllantiruvchi birinchi pog‘onadir. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim va tarbiya jarayonini qanchalik yuqori saviyada tashkil etilsa, tarbiyalanuvchi bolalar, shunchalik ta‘limning keyingi turlarida qiyalmasdan muvvaffaqiyat qozona olishlariga imkoniyat yaratiladi. Bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo‘lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta‘sirida ma‘naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo‘la boshlaydi . Bolalarning intellektual salohiyatlarini shakllantirishning boshlang‘ich davri ham huddi ana shu yoshdan boshlanadi. Ta‘lim jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar va *multimedia vositalarini* keng joriy etish orqali o‘qitish sifatini tubdan yaxshilash va har bir —*maktabgacha taq`lim tashkiloti* o‘yinli va bilish jarayoni bilan bog‘liq multimedia dasturi bilan ta‘minlash kerak bo‘ladi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida multimedia texnologiyasidan foydalanishning asosi bu mashg‘ulotdir. Mashg‘otlar davlat standartlari va talablari asosida o‘tkaziladi. MTTlarda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar mакtabga tayyorlov guruхlarida kompyuterdan foydalanib 35-40 daqiqaga mo‘ljallanadi va 15daqiqa davomida tarbiyalanuvchilarga asosiy ma‘lumotlar beriladi. Tarbiyalanuvilarining kompyuterdan foydalanishlari 15 daqiqadan oshmasligi kerak. 5-10 daqiqa o‘rganiladigan ma‘lumotlar bo‘yicha qiziqarli o‘yinlar o‘tkaziladi. So‘ngra o‘rganilgan ma‘lumotlar mustahkamlanadi. Tarbiyalanuvchilarning kompyuter savodxonligini oshirish davom ettirilib, ularning bilimlari baholanadi. Tabiyachining haftalik ish rejasining hafta yakuni deb nomlangan qismida( bola nimani bilishni xohlaydi) jumlesi ko‘pgina tarbiyachilarda qiyinchlik tug‘diradi. Chunki bola hafta mavzusiga oid bilimlarga ega bo‘lgach ,albatta savol berib o‘z fikrlari bilan o‘rtoqlashadi va yanada ko‘proq narsalarni ,bilishni xohlaydi.Bu paytda biz pedagoglar AKTdan foydalanib bolalar xohishini bajarsak,ta‘lim tarbiya berishda yengillik bo‘la oladi deb o‘ylayman.Masalan ,oy, hafta mavzusiga oid ma‘lumotlarni o‘rganilayotganda, tarbiyalanuvchilarni o‘simlik dunyosi va uy hayvonlari,yirtqich hayvonlar,milliy hunarmandchilik,koinot,dunyo mamlakatlari bilan tanishtirishda, tarbiyalanuvchilarni sayohatga olib chiqishda muammolar tug‘ilishi aniq. Buning uchun, kompyuter xotirasi va internet ashyolaridagi mavzuga tegishli ma‘lumotlarni birin-ketin ko‘rsatib izohlashi mumkin.

Tarbiyalanuvchilarga kompyuter ,televizor orqli ekranida navbatma-navbat chiqarilgan ma‘lumotlar bo‘yicha savol- javob o‘tkazib ,tarbiyalanuvchilarga ma‘lum bir darajadagi bilimlar bilan boyitish mumkin. Tarbiyachi multimedia texnologiyasini ta‘lim-tarbiyaga joriy etishda mashg‘ulot

orqali ham bilim berish mumkin. Kampyuter o‘yinlari esa tarbiyalanuvchilarning qiziquvchanlik xususiyatini oshiradi va quyidagicha namoyon bo‘ladi:

1)Ekranda ko'rsatilgan o'yin obyekti doimiy ravishda harakatlanib,jilolanib turishida; 2)tovushda;3)musiqada;4)animatsiyada 5)multifikasiyada.

Ta'lim tizimida foydalanib kelinayotgan an'anaviy ko'rgazmali materiallar statik xarakterga ega.Masalan, tarbiyachi doira shaklini tanishtirishda an'anaviy usulda o'rgatish mobaynida ,bolaga uninig qog'ozdan yoki kartondan yasalgan shaklini ko'rsatadi.Multimediya vositasida ko'rsatilganda doira shakli kompyuter (monitor) ekranida tebranib,bolalarning diqqatini o'ziga jalb etadi.

O'yin davomidagi ushbu "kompyuterli"psixologik-pedagogik ta'sirlar yosh bolalarning faqat qiziquvchanlik xususiyatlarini oshiribgina qolmasdan,balki bilim olishga bo'lган ishtyoqini oshiradi. . Kompyuterli mashg'ulot asosan MTMlarning mакtabga tayyorlov guruhlari (6-7yosh) uchun mo'ljallanganiga qaramasdan, ko'п hollarda yosh guruhlarda ham foydalanish mumkin. Ayniqsa, yosh guruhlardagi tarbiyalanuvchilarga kompyuter ekraniga tarbiyachining izohi bilan turli qiziqarli tarbiyaviy o'yinlar yoki bolalar hayotiga doir ko'rgazmalarni namoyish etish qo'l keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim - tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablari va stadartlarida maktabga tayyorlov guruhi (6-7 yosh) uchun savodga tayyorlash, elementar matematik bilim va atrof olamni o'rganish, ta'lim o'yinlari yo'naliishlari bo'yicha quyidagilar qayd etilgan: nutq o'stirish bo'yicha nutqning tovush madaniyatini shakllantirish, ijodiy hikoya qilish, nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish, lug'atini boyitishni faollashtirish, matematika bo'yicha son va sanoq, miqdor (kattalik), shakllar, fazoviy tasavvurlar, vaqt haqida tasavvur. Ta'limiy o'yinlar bo'yicha rangni top (ranglarni to'g'ri ajratish), shaklni top (doira, kvadrat uchburchak va boshqa shakllar), halqalarning shakli va ranglari bo'yicha o'yinlar, ekologiyaga oid o'yinlar va turli xil an'anaviy rivojlantiruvchi o'yinlar, tabiat bilan tanishtirish bo'yicha gulzorga ekskursiya, paxta dalasiga ekskursiya, musicha va kaptarni kuzatish, ularning xususiyatlari va farqi, havo va uning xossalari bilan tanishtirish, suv va uning xususiyatlari bilan tanishtirish kiradi. Bu sohadagi mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish maqsadida, harflarni o'rganishda, multimedia texnologiyasi va vositalariga asoslangan yangi uslubni taklif etamiz. Ushbu uslub bo'yicha an'anaviy darslik o'rнida elektron darslik yoki har bir MTT da tayyorlash imkonи bo'lган multimedia qo'llanmasidan foydalanish mumkin.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda,maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi bola shaxsini sog'lom yetuk qilib tarbiyalash.Ushbu maqsadni amalga oshirishda hozirgi asr- axboroti asri ekanligidan kelib chiqqan holda MTTlarida ta'lim- tarbiya jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish davr talabidir. Multimedia texnologiyasi, asosan, kompyuterlar yordamida amalga oshiriladi. Ammo, hozirgi kunda respublikamiz MTTlarining ko'pchiligi kompyuterlar bilan to'la ta'minlanmagan. Birinchi muammodan vaqtinchalik chiqish uchun, ayrim MTTlarda kompyuterli mashg'ulotlarining birinchi bosqichini televizor va DVD qurilmalari

orqali amalgalashishining imkoniyati mavjud. Buning uchun, dasturli yoki rolli (ijroli) multimedia ta'lim vositalari tayyorlab diskka ko'chiriladi. Ikkinchi muammo shundan iboratki, multimediali mashg'ulotlar asosan kompyuter yordamida amalgalashishi tufayli tarbiyalanuvchilar ular bilan elementar ishlash darajasiga ega bo'lishlari lozim. Bu o'z navbatida tarbiyalanuvchilarda kompyuter savodxonlikni shakllantirilishni taqozo etadi. Shunga ko'ra ,tarbiyachi mashg'ulotlarda turli o'quv pedagogik dasturlardan ,elektron qo'llanmalardan , pedagogik o'yinlardan foydalansa tarbiyachi va .tarbiyalanuvchilar o'rtaida to'siq yo'qoladi.

**Innovatsion texnologiyalar** pedagogik jarayon hamda tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kirib keladi.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Aripov M. Informatika va axborot texnologiyasi asoslari. – T. Universitet, 2001.
2. Abdullaeva S. Ekologik tarbiya vazifalari Maktabgacha ta'lim. – T.: 2008